

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2020. Ped.26.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

KALBAYEVA XURI DJURAYEVNA

**INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINFI
O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENTLIGINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.03 – Maxsus pedagogika

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent 2024

**Falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Contentsof dissertationabstract of the
doctor of philosophy (PhD) on Pedagogical sciences**

Kalbaeva Xuri Djuraevna

Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirish 3

Калбаева Хури Джураевна

Совершенствование методической компетентности учителей начальных классов в процессе инклюзивного образования..... 25

Kalbayeva Khuri Djurayevna

Improving the methodological competence of primary school teachers in the process of inclusive education..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 53

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020. Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

KALBAYEVA XURI DJURAYEVNA

**INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINFI
O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENTLIGINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.03 – Maxsus pedagogika

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2023,1..PhD/Ped 4613 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) veb-sahifaning www.tdpu.uz hamda «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muminova Lola Raximovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xakimova Muxabbat Fayziyevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Arslanova Madina Mansurovna
pedagogika fanlari bo‘yicha fanlari doktori,
(PhD)

Yetakchi tashkilot:

Qo‘qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/30.01.2020 Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «__» iyul__ soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-75-26; faks: (99871) 276-76-51; y e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin _____ raqami bilan ro‘yxatga olingan).Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-75-87; faks: (99871) 276-80-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2024 yil «__» _____ da _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

N.A.Muslimov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

R.G.Isyanov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.n., dots.nt

Z.N.Mamarajabova

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini, inklyuziv ta'limni rivojlantirish jarayonida takomillashtirishning innovatsion modellari tatbiq etilmoqda. BMT tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish dasturida barcha insonlar butun hayot davomida umumqamrovli, adolatli, sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratishga qaratilgan strategik vazifalar belgilanib, ta'limning inklyuzivligi va dolzarbligini ta'minlash, o'qituvchilarning kasbiy mahorati va inklyuziv-metodik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, kasbiy kompetentlikning tarkibiy komponentlarini o'rganish va majmuaviy takomillashtirish sohasida global loyihalarni amalga oshirish yuzasidan amaliy ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida o'qituvchilarning inklyuziv ta'limga kasbiy tayyorligi, o'qituvchining ijtimoiy qarashlari va qadriyatlari hamda inklyuziv ta'limning qulay muhitini yaratishda metodik kompetentligi, inklyuziv ta'lim bo'yicha o'qituvchilar mahoratini oshirish markazlari faoliyatini rivojlantirish, ta'lim oluvchilarga ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos ta'lim resurslarini yaratishga oid ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligining mazmuni va funksiyalari, kompetentlikni shakllantirish modellari, inklyuziv-metodik kompetentlikni baholash mezonlari, ota-onalar bilan hamkorlik qilish modellari; o'qituvchi – o'quvchi- munosabatlarini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar ham olib borilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda dunyo talablariga mos ravishda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan ta'lim oluvchilar sifatli inklyuziv ta'lim olishi uchun zamonaviy infratuzilma va texnologiyalar yaratish, inklyuziv ta'lim pedagoglarining mahoratini oshirishning huquqiy - me'yoriy asoslari takomillashtirilmoqda. Davlat dasturlarida "Inklyuziv ta'lim tizimi sohasidagi normativ bazani takomillashtirish, ... inklyuziv ta'lim jarayonlarini kengaytirish, inklyuziv ta'lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish,..." inklyuziv ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalar joriy etish" ustuvor vazifalar etib ko'rsatilgan. Mazkur vazifalar ijrosi, innovatsion inklyuziv ta'lim sharoitida faoliyat olib borayotgan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirib borish mexanizmlarini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish va amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 11-maydagi PF-134-son "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF 6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "Oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 - yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmonlari, shuningdek, 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son "Alohida

ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 20 oktyabrdagi PQ-407-son "O'zbek imo-ishora tili va Brayl alifbosini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorlarida belgilangan vazifalar va mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Milliy maxsus pedagogikada inklyuziv ta'limning hozirgi holati, joriy etish tendentsiyalari, talabalarni maxsus va inklyuziv ta'limga kasbiy tayyorlash, maxsus pedagogikada pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari, ona tili, matematika, texnologiya, tabiatshunoslik fanlarini o'qitish, savod o'rgatish, nutq o'stirish texnologiyalari, shuningdek, ta'lim oluvchilarning o'ziga xos psixologik-pedagogik xususiyatlari L.R.Muminova, R.Shomaxmudova, G'.B.Shoumarov, D.A.Nazarova, D.A.Nurkeldieva, L.Sh.Nurmuxamedova, Z.M.Axmedova, M.Y.Ayupova, U.Y.Fayzieva, F.U.Qodirova, Z.N.Mamarajabova, D.B.Yakubjanova, M.P.Xamidova, M.F.Xakimova, M.U.Xamidova, Sh.M.Amirsaidova, L.Sh.Nurmuxamedova, R.R.Rustamova, N.Sh.Bekmuratov, D.S.Kaxarova, N.Musaevalar tomonidan tadqiq etilgan. L.R.Xayitov, X.I.Malikova, X.N.Muzaffarova, D.T.Usmonova, M.Umaralieva, O.Bozorov tadqiqotlarida bevosita muayyan yo'nalishdagi pedagoglarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish masalalari har tomonlama ko'rib chiqilgan.

MDH davlatlarida N.N.Malofeev, V.Z.Kantor, V.V.Xitryuk, I.N.Xafizullina, I.V.Shumilovskaya, I.V.Voznyak, O.V.Karinbaeva, O.S.Kuzmina, N.V.Kuzmina, T.V.Syasiva, D.A.Petrov, O.S.Borodina, O.A.Kozireva, O.Y.Muller, Y.A.Korolyova, V.N.Ponikarovalar tomonidan pedagoglarni inklyuziv ta'limga tayyorlash; Z.A.Movkebaeva, B.A.Dyusenbaeva, I.A.Oralkanova, Y.V.Shumilovskaya tomonidan inklyuziv ta'lim muhitini yaratish imkoniyatlari tadqiq etilgan.

Jahon olimlaridan T.Brandon, De Boyer, P.Djons, Dj.Kim, L.Grahm, V.Harvodlar ilmiy asarlarida inklyuziv ta'limga nisbatan o'qituvchilarining munosabatlari, kasbiy kompetentligi va kasbiy tayyorgarlikning tarkibiy qismlari va uni rivojlantiruvchi omillarni o'rganib chiqilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy – tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining PZ-20170923124 raqamli «Ta'lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish» nomli amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2017-2020 yy.).

Tadqiqotning maqsadi inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari

boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-metodik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tahlil qilish;

boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv metodik kompetentligining rivojlanganlik darajasini o'rganish metodikasini baholash mezonlarini takomillashtirish;

boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv - metodik kompetentligini rivojlantirish modelini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish;

boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv metodik kompetentligini rivojlantirish modelini joriy etish texnologiyalari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirish jarayoni bo'lib, pedagogik tajriba-sinov ishlarida Toshkent shahar, Xorazm, Namangan, Buxoro viloyatlaridan 229 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilari qatnashgan.

Tadqiqotning predmetini inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirish shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga oid ilmiy manbalar, ta'lim oluvchilar hujjatlarini o'rganish, kuzatish, suhbat, anketa so'rovnomalari, tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirish imkoniyatlari inklyuziv-metodik tayyorgarlik mazmunini ochib berishga qaratilgan tizimli va kompetensiyali yondashuvlarning integrativ xususiyatlarini qayta aloqaga kirishish tamoyiliga ko'ra aniqlash hamda o'z-o'zini ijodiy hamkorlik darajasiga mos faollashtirishga oid pedagogik mikromuhitni yaratish asosida takomillashtirilgan;

inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirish jarayoni axborot-bilish samaradorligi, shaxsiy-qadriyatli faoliyat va baholovchi-tahliliy ko'nikmalarning shakllanganlik darajalarining didaktik komponentlarga ko'ra o'ziga xos indikatorlarini qiyosiy aniqlashga barqaror ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirish samaradorligi kompetensiyali-aksiologiya yondashuv mazmunidan samarali foydalanishga qaratilgan ta'lim sub'ektlarining o'zaro hamkorlik faolligi dinamikligini ta'limiy maqsadlarga mos tashkiliy-pedagogik loyihalash asosida takomillashtirilgan;

inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirish texnologiyalari aksiologik-kontekstli ta'lim traektoriyasini ta'lim sub'ektlarining verbal muloqot mazmuniga ko'ra prognostik loyihalash, imitatsiya qilish, muammoli metodik vazifalarni bajarish hamda individual

faoliyati traektoriyasi mobilligini ta'limiy-rivojlantiruvchi maqsadlarga mos uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

“Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv metodik kompetentligini rivojlantirish” modulining o'quv dasturi yaratilgan;

umumta'lim maktablarning boshlang'ich inklyuziv va korreksion sinflari uchun “Nutq o'stirish” (Og'zaki nutq) o'quv qo'llanmasi nashr etilgan;

ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarining 1-sinf o'quvchilari uchun “Matematika ish daftari” ishlab chiqilgan,

4-sinf o'quvchilari uchun “Nutq o'stirish” darsligi yaratilgan va amaliyotga tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy, metodologik yondashuvlarning, metod va texnologiyalarning respublikamiz va xorijda yaratilgan pedagogika hamda maxsus pedagogikaga oid ilmiy va ilmiy-metodik tadqiqotlarga, amaliyotchi-o'qituvchilarning tajribasiga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati dissertatsiyada inklyuziv ta'lim sharoitida faoliyat olib borayotgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari inklyuziv metodik kompetentligining o'zaro bog'liq, bir-biriga uyg'unlashgan shaxsiy-qadriyat, axborot bilish, faoliyat, baholash-tahlil komponentlari (mezonlari) ning yaxlit tuzilmasi, inklyuziv-metodik kompetentlik darajasini baholash metodlari, takomillashtirishi yuzasidan ilmiy asoslangan ma'lumotlar, muammoni aniqlash yo'llari va ularning yechimlari bo'yicha ishlab chiqilgan pedagogik tavsiyalar inklyuziv-metodik kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodologik yondashuvlarni takomillashtirishda foydalanishi, shuningdek, mutaxassislar tomonidan o'quv qo'llanmalar, metodik tavsiyalar yaratishda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda va ularning malakasini oshirishda, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limi mazmunini nazariy jihatdan boyitishda foydalanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning natijalari inklyuziv ta'lim sharoitida ishlovchi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirish modeli ishlab chiqilgani, “Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-metodik kompetentligini rivojlantirish” modulining o'quv dasturi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan ta'lim oluvchilar uchun o'quv metodik adabiyotlarning yaratilgani hamda erishilgan natijalar o'qituvchilarning inklyuziv-metodik kompetentligini takomillashtirish, inklyuziv ta'lim-tarbiya jarayonini mazmunan boyitishga xizmat qilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida metodik kompetentlikni takomillashtirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirish imkoniyatlari inklyuziv-metodik tayyorgarlik mazmunini ochib berishga qaratilgan tizimli va kompetensiyali yondashuvlarning integrativ xususiyatlarini qayta aloqaga kirishish tamoyiliga ko'ra aniqlash hamda o'z-o'zini ijodiy hamkorlik darajasiga mos faollashtirishga oid pedagogik mikromuhitni yaratish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab internatlarining "Nutq o'stirish" nomli 4-sinf darsligi mazmuniga singdirilgan (Respublika ta'lim markazining 2022-yil 25-martdagi 1-son qarori). Natijada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv ta'lim sohasidagi metodik kompetentligini o'rganish metodikasini takomillashtirishga sharoit yaratilgan;

inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirish jarayoni axborot-bilish samaradorligi, shaxsiy-qadriyatli faoliyat va baholovchi-tahliliy ko'nikmalarning shakllanganlik darajalarining didaktik komponentlarga ko'ra o'ziga xos indikatorlarini qiyosiy aniqlashga barqaror ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid takliflar imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab internatlarining "Nutq o'stirish" nomli 4-sinf darsligi mazmuniga singdirilgan (Respublika ta'lim markazining 2022-yil 25-martdagi 1-son qarori). Natijada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv ta'lim sohasidagi metodik kompetentligini rivojlantirish modelini takomillashtirish imkoni kengaytirilgan;

inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirish samaradorligi kompetensiyali-aksiologiya yondashuv mazmunidan samarali foydalanishga qaratilgan ta'lim sub'ektlarining o'zaro hamkorlik faolligi dinamikligini talimiy maqsadlarga mos tashkiliy- pedagogik loyihalash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab internatlarining "Nutq o'stirish" nomli 4-sinf darsligi mazmuniga singdirilgan (Respublika ta'lim markazining 2022-yil 25-martdagi 1-son qarori). Natijada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv ta'lim sohasidagi metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini aniqlashga erishilgan;

inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirish texnologiyalari aksiologik-kontekstli ta'lim traektoriyasini ta'lim sub'ektlarining verbal muloqot mazmuniga ko'ra prognostik loyihalash, imitatsiya qilish, muammoli metodik vazifalarni bajarish hamda individual faoliyati traektoriyasi mobilligini ta'limiy-rivojlantiruvchi maqsadlarga mos uyg'unlashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab internatlarining "Nutq o'stirish" nomli 4-sinf darsligi mazmuniga singdirilgan (Respublika ta'lim markazining 2022-yil 25-martdagi 1-son qarori). Natijada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv ta'lim sohasidagi metodik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tahlil qilish samaradorligi oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy Attestatsiya Komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 4 ta, shundan respublika jurnallarida 7 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 142 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti va predmeti, fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida hozirgi bosqichda O'zbekistonda inklyuziv ta'limning huquqiy-mey'oriy asoslari takomillashtirilishi, xorijiy va milliy tadqiqotlarda pedagoglarning inklyuziv-metodik kompetentligini o'rganish va takomillashtirish masalalari; inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik kompetentligining mazmun-mohiyati, tarkibiy komponentlari va ularni takomillashtirishga xizmat qiladigan omillarni aniqlash masalalari yoritilgan. Inklyuziv ta'lim barcha bolalarni maktablarga to'siqsiz qatnashi va ta'lim olishiga yo'l bermaydigan cheklovlarni bartaraf etishga, shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishga qaratilgan jarayon sifatida, alohida ta'limiy ehtiyojlari bo'lgan ta'lim oluvchilarning madaniy, ijtimoiy, kognitiv, jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ta'lim olishga bo'lgan huquq va ehtiyojlarini ta'minlashga yo'naltirilgan. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya va boshqa umumjahon miqyosidagi huquqiy hujjatlarning ta'lim jarayonida barcha uchun teng huquqli ishtirokini ta'minlaydigan ta'limni rivojlantirishning asosi bo'lib xizmat qilishi xususida so'z yuritilgan.

Xalqaro huquq me'yorlari, tamoyillariga mos ravishda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasi alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlangani, 52-moddasi o'qituvchining kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlikning kafolatlagan. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida” Qonunining 9,15-,20-,34-,38-,46-,47-,52-,55-moddalarida jismoniy, aqliy, sensor, yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'lim olish huquqlarini amalga oshirish mexanizmlari tartibga solingan, o'qituvchilarning bu sohadagi kasbiy burchlari mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida” Qonunining 11-,38-40-moddalarida ushbu toifadagi shaxslar o'z qobiliyatlarini to'liq rivojlantirish va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun butun

hayoti mobaynida ta'lim olish huquqi, shu jumladan inklyuziv ta'lim olish imkoniyati, pedagog xodimlarning inklyuziv ta'lim masalalarida o'qitishi davlat tomonidan ta'minlanishi kafolatlangan. Mazkur qonunlarga kiritilgan yangi huquqiy m'yorlar, bir qator Hukumat farmonlari va qarorlarida belgilangan vazifalar va strategiyalar xususan, inklyuziv ta'lim jarayonlarining barqaror taraqqiy etishiga, shuningdek, inklyuziv ta'lim uchun pedagoglarning yuqori kasbiy tayyorgarligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Jahon miqyosida o'qituvchining kasbiy kompetentligini inklyuziv ta'limni rivojlantiruvchi asosiy resurs sifatida har jihatdan o'rganilishi mazkur muammoga doir turli yondashuvlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Xususan, AQSh tadqiqotchi olimlaridan D.Gudman, M.Xeyzelkorn, D.Byucholz, M.L.Daffi, Y.Kitta, A.D.Boer, S.J.Piil va A.Minnaert, J.R.Kim o'qituvchilarni qayta tayyorlash kurslarida qo'shimcha o'qitish, turli xil nogironligi bo'lgan bolalar bilan o'zaro munosabatlarini rivojlantirish sohasidagi kompetensiyalari alohida e'tirof etilgan. Avstraliya tadqiqotchilaridan Deakin Krik, L.Florian va X.Linklaterlar "kasbiy kompetentsiyani insonning ma'lum bir sohada samarali, mujassam harakatlariga olib keladigan turli xil bilim, ko'nikma, tushuncha, qadriyatlar, munosabat va istaklarning murakkab kombinatsiyasi"- deb ta'riflaydilar. Xitoy olimlari Guanglun Michael Mu, Yan Wang, Zhiqiang Wang, Yajing Feng, Meng Deng, Songmei Liang tomonidan, inklyuziyaga munosabat, bilim va ko'nikmalar inklyuziv ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligining uchta ustuni sifatida keng tan olingan, bular jarayon sifatida doimiy ravishda ta'lim oluvchilar, hamkasblar, ota-onalar va boshqa manfaatdor shaxslar bilan o'zaro munosabatlarida rivojlanadi.

Rossiya tadqiqotchi olimlaridan O.S.Kuzmina, N.V.Kuzminalar inklyuziv-metodik kompetentlikning motivatsion-qadriyat, operatsion-faoliyat, refleksiv-baholash, O.Y.Muller motivatsion va qadriyatli komponent; nazariy (metodik, umumiy kasbiy, inklyuziv ta'lim sohasidagi) bilimlari rivojlanishini rag'batlantiruvchi kognitiv komponent; metodik kompetentlikning amaliy funksiyasining rivojlanishini ta'minlovchi tashkiliy va amaliy komponent, O.A.Kozireva inklyuziv ta'lim muhitini modellashtirish; ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishga ko'maklashadigan texnologiyalar va usullarni qo'llash; individual-rivojlanish traektoriyasini loyihalash; o'z-o'zini rivojlantirish va refleksiya qilish, shuningdek, inklyuziv ta'lim tizimi sharoitida ta'lim oluvchilarning uyg'un rivojlanishini ta'minlaydigan muhit yaratish sohasidagi kompetensiyalarini, I.N.Xafizullina motivatsion, kognitiv, refleksiv hamda operatsion tarkibiy qismlarini farqlaydilar. Izlanishlar asosida mazkur kompetentlikni rivojlantirishga oid turli didaktik modellar hamda texnologiyalarini taklif etadilar.

O'zbekiston pedagog olimlari N.A.Muslimov, S.Turg'unov, B.X.Daniyarov, B.Rahimov, N.Tayloqov, U.Begimqulov, Sh.S.Sharipov, R.X.Djuraev, O.A.Qo'ysinov, M.B.Urazova, N.Gaipova, N.Karimova, A.T.Turdaliyev, M.S.Usmonova, R.B.Matholiqov, defektolog olimlar L.R.Muminova, R.Shomaxmudova, D.A.Nurkeldieva, U.Y.Fayzieva, D.B.Yakubjanova, D.A.Nazarova, O.Y.Bozorov, X.I.Malikova, M.Qodirov, LR.Xayitovlar tomonidan kasbiy kompetentlikning metodik kompetentlik, psixologik, kreativ, informatsion, innovatsion, kommunikativ va boshqa turdagi kompetentliklar ajratilgan. Tadqiqotchilar "metodik kompetentsiya"ni, insonning muayyan o'quv fani sohasidagi integratsiyalashgan

fundamental bilimlari, umumlashtirilgan ko'nikma va qobiliyatlari, kasbiy va shaxsiy fazilatlarini, yuqori darajadagi texnologik madaniyati va mahorati, faoliyatni tashkil etishga ijodiy yondashuvi, o'zini o'zi doimiy rivojlantirishga tayyorgarliklarning majmui deb hisoblaydilar. Kompetentlik- kasbiy tayyorgarlik davrida faoliyat sub'ektida hosil bo'lgan, funksional muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradigan va kasbiy faoliyatning mohiyatini tashkil etadigan bilimlar, ko'nikmalar, qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlar tizimida namoyon bo'ladi.

Muammo mavzusiga bag'ishlangan milliy va xorijiy tadqiqotlarda olimlar tomonidan keltirilgan pedagog kasbiy faoliyatining tahlili asosida, inklyuziv ta'lim jarayonida namoyon etiladigan metodik kompetentlikni "inklyuziv-metodik kompetentlik" deb, uni quyidagicha tavsiflash mumkin. Inklyuziv-metodik kompetentlik o'qituvchining "kasbiy faoliyatida ta'lim jarayoni ishtirokchilari bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilishi, barcha ta'lim oluvchilarda, shu jumladan, imkoniyati cheklangan o'quvchilarda imkoniyatlariga mos sifatli bilim, ko'nikma va tayanch kompetentsiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik bilimlar, malakalar, qadriyatlar va shaxsiy sifatlar majmuasidir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining inklyuziv metodik kompetentligi tuzilmaviy tarkibidagi o'zaro uyg'unlashgan shaxsiy-qadriyat, axborot-bilish, faoliyat, baholash-tahlil komponentlari aniqlandi va takomillashtirildi.

Inklyuziv-metodik kompetentlikning shaxsiy-qadriyat komponenti o'qituvchining inklyuziyaga, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan ta'lim oluvchilarga nisbatan qadriyatli munosabati; inklyuziv muhitda kasbiy rivojlanishga xohish-irodasi, kommunikativ qobiliyati, pertseptiv qobiliyati, o'z-o'zini idora qilishi, kreativlik qobiliyatlarida ifodalanadi. Shaxsiy qadriyat komponent, hal qiluvchi ahamiyati tufayli inklyuziv ta'lim sharoitida o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirishning kompleks jarayonida tartibga solish funksiyasini bajaradi.

Axborot-bilish komponent o'qituvchilarining inklyuziv ta'lim sharoitida amalga oshiriladigan faoliyatining mohiyati va tuzilishi to'g'risida; inklyuziv ta'lim muhitining mohiyati va tuzilishi, uning rivojlanish omillari to'g'risida; kasbiy talablar va uning tarkibiy qismi to'g'risida xabardorligini belgilaydi. Axborot-bilish komponent o'quv fanlarini o'qitish va ulardan inklyuziv ta'lim sifatini oshirish maqsadida foydalanish xususiyatlari sohasidagi bilimlari; samarali korreksion-rivojlantiruvchi, metodik faoliyat uchun zarur bo'lgan maxsus metodik bilimlar tizimini o'z ichiga oladi.

Faoliyat komponent o'qituvchilar uchun metodik faoliyat vazifalarini samarali hal qilish uchun zarur bo'lgan kasbiy malakalardan iborat. Mazkur komponent o'qituvchining metodik faoliyatni amalga oshirishga amaliy tayyorgarligi darajasini ko'rsatadi.

Faoliyat komponent inklyuziv ta'lim muhitida o'quv faoliyatni tashkil etish va boshqarish sohasidagi kompetentsiyalar, raqamli kompetentlik, ta'lim oluvchilarning axborotga asoslangan kognitiv faoliyatini rivojlantirish sohasidagi kompetentsiyalardan tarkib topadi. Baholash-tahlil komponent kasbiy faoliyati tahlilini amalga oshirish kompetentsiyalari; ta'lim-tarbiya natijalarini bashorat qilish, tahlil etish, o'quv jarayonini loyihalash va qurish qobiliyatlarida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, inklyuziv ta'lim muhitida kasbiy faoliyatni amalga oshirayotgan boshlang'ich sinf o'qituvchisining inklyuziv metodik kompetentligi shaxsiy qadriyat,

axborot-bilish, faoliyat, baholash-tahlil tarkibiy komponentlarni o‘z ichiga olgan o‘zaro bog‘liq yaxlit integratsiyalashgan tizimdir.

Dissertatsiyaning “Inklyuziv ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish” deb nomlangan ikkinchi bobida ta’kidlovchi tajriba-sinovning maqsadi, vazifasi, tamoyillari va metodikasi tahlilga tortiladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining inklyuziv-metodik kompetentligining rivojlanganlik darajasini o‘rganish bo‘yicha tajriba-sinov ishlariga Toshkent shahri, Xorazm, Namangan, Buxoro viloyatidan jami 229 nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari jalb etildi. Tadqiqot davomida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining inklyuzivmetodik kompetentligi (shaxsiy qadriyat, axborot-bilish, faoliyat, baholash, tahlil) komponentlarining rivojlanganlik darajasini o‘rganishning tahliliy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lishi uchun, mazkur holat ilmiy-pedagogik jihatdan o‘rganildi va natijalarni baholashga oid mezonlar (ko‘rsatkichlar) aniqlandi.

(1-jadvalga qarang).

1-jadval

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining inklyuziv-metodik kompetentligining rivojlanganlik darajalari

Darajalari	Baholsh mezonlari
past	Turli ta’lim oluvchilarni, shu jumladan alohida ta’limiy ehtiyojlarga ega bolalarning ehtiyojlarini yetarli darajada bilmaydi va tushunmaydi; ta’lim oluvchilar uchun o‘quv materiallar va ta’lim metodlarini moslashtira olmaydi; ta’lim berishda tabaqalashtirilgan yondashuvlardan yetarli darajada foydalana olmaydi; individual ta’lim rejalarini (ITR) bilan ishlash malakalar yetishmaydi; ta’lim oluvchilarning ota-onalari va boshqa mutaxassislar bilan o‘zaro aloqalarni bog‘lay olmaydi; ATEB bolalarga, inklyuziv ta’lim g‘oyalariga nisbatan ijobiy munosabatni bildirmaydi;. inklyuziv ta’lim sohasida kasbiy bilim va malakalarni rivojlantirishga istagi bor.
o‘rta	Turli xil xususiyatlarga ega ta’lim oluvchilarning ta’limiy ehtiyojlari to‘g‘risida umumiy bilimlarga ega; ATEB ta’lim oluvchilar uchun uchun o‘quv materiallar va ta’lim metodlarini moslashtirish bo‘yicha umumiy malakalarga ega, qiyinchiliklarga duch keladi; ta’lim-tarbiya jarayonida asosiy differensial yondashuv qo‘llashda qiyinchiliklarga duch keladi; iIndividual ta’lim rejalarini (ITR) ishlab chiqish va qo‘llashda qiyinchiliklarga duch keladi; ota-onalari va alohida ta’lim oluvchilarni qo‘llab-quvvatlash sohasidagi boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik aloqalar o‘rnata oladi; Inklyuziv ta’limga ijobiy munosabat shakllangan, biroq o‘z kompetentligiga yetarlicha ishonmaydi; turli xil ta’lim oluvchilar guruhlari bilan ishlashning ma’lum malakalari mavjud, ammo individual yordamni ta’minlashda qiyinchiliklar bor.
yuqori	Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan ta’lim oluvchilarning individual ehtiyojlarini yaxshi biladi va tushunadi; turli xil ta’lim oluvchilar uchun o‘quv materiallari va ta’lim-tarbiya metodlarini moslashtiradi; barcha ta’lim oluvchilarga ta’lim jarayonidan foydalanish imkoniyatini ta’minlash uchun differensial yondashuvlarni samarali qo‘llaydi; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan ta’lim oluvchi uchun individual ta’lim rejalarini (ITR) ishlab chiqadi va ulardan foydalanadi; ota-onalar, boshqa mutaxassislar va hamkasblari bilan faol muloqot qiladi; ta’limning xilma-xilligi va farqlariga ijobiy munosabatda, barcha ta’lim oluvchilarni samarali qo‘llab-quvvatlaydi; sinf jamoasini samarali boshqaradi va barcha ta’lim oluvchilarning muvaffaqiyatli o‘qishiga yordam beradigan inklyuziv muhitni yaratadi.

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv ta'lim xususida xabardorligi, inklyuziyaga munosabati, inklyuziv-metodik kompetentligining rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun testlar, so'rovnomalardan foydalanildi. Ta'kidlovchi tajriba-sinov topshiriqlarini ishlab chiqishda davlat ta'lim standartlari, o'qituvchilarning kasbiy malaka talablariga, shuningdek, inklyuziv-metodik kompetentligini kompetentsiyaviy, aksiologik, akmeologik, sinkretik yondashuvlar asosida rivojlantirish tamoyillariga tayanildi. Inklyuziv-metodik kompetentlikning rivojlanganlik darajasini ko'rsatkichlar bo'yicha baholash uchun 5 ballik (0 dan 5gacha) tizimdan foydalanilib, kompetentlikning past, o'rta, yuqori darajalari aniqlandi (2-jadvalga qarang)

2-jadval

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-metodik kompetentligining rivojlanganligi

№	Komponentlar(mezonlar)	Past	O'rta	Yuqori
1	Shaxsiy qadriyat	41,9%	46,9% (107)	10,9%(25)
2	Axborot-bilish	49,7%(114)	45%(103)	5,2%(12)
3	Faoliyat	44,9 %(103)	48,9%	6%(13)
4	Baholash-tahlil	47,9%(103)	45,8 %(105)	6 %(13)
5	O'rtacha ko'rsatkich	48,9%(112)	44.1%(101)	7%(16)

Diagrammadan ta'kidlovchi tajriba-sinov natijalariga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-metodik kompetentligining barcha mezonlari bo'yicha rivojlanganlikning past darajasi respondentlarning 48,9 foizida, o'rta darajasi 44,1 foizida, yuqori darajasi 7,0 foizida namoyon bo'lganini kuzatish mumkin.

O'qituvchilarning inklyuzivmetodik kompetentligining past darajasi pedagoglarning inklyuziv ta'limga motivatsion yo'naltirilmaganligi, ishi tajribasi kamligi, inklyuziv ta'lim jarayoniga tayyorgarligining yo'qligi bilan izohlanadi. Inklyuziv metodik kompetentlikning yuqori darajasini o'qituvchilarning inklyuziv ta'limdagi faolityatiga qadriyati, munosabati, ko'p yillik pedagogik tajribasi, soha bo'yicha tegishli tayyorgarligi, o'z kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashuvi mavjudligi bilan izohlanadi.

Olib borilgan tajriba-sinov ishlari boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-metodik kompetentligini rivojlantirish uchun alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar psixologik-pedagogik xususiyatlari, rivojlanish imkoniyatlarini o'rganish; umumta'lim va maxsus o'quv dasturlar, darslik va didaktik materiallarni tahlil qilish, ta'lim oluvchilar imkoniyatlariga ko'ra moslashtirish, inklyuziv muhitdagi metodik muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yo'llarini topish sohasidagi kompetentsiyalarini rivojlantirish zarurligidan dalolat berdi. Shu bilan birga o'qituvchilarning o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish malakalarini o'stirish, inklyuziv-metodik kompetentligining rivojlanish dinamikasini kuzatish, ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv dasturlarini o'zlashtirishini, erishilgan natijalarning ta'limiy maqsad va vazifalarga muvofiqligini baholash, inklyuziv ta'lim-tarbiya usullari, vositalarining samaradorligini bashorat qilish sohasidagi kompetentsiyalarini o'stirish zarurligini ko'rsatdi.

Dissertatsiyaning **“Inklyuziv ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirish tizimi samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil qilish hamda tajriba-sinov ishlar natijalari asosida inklyuziv-ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining inklyuziv-metodik kompetentligini takomillashtirish jarayonining modelini ishlab chiqish, uni kasbiy rivojlantirish jarayonida kontekstli ta’lim texnologiyalari vositasida rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari yoritilgan.


Innovatsion ta’limning yangi paradigmasi inklyuziv ta’lim sifatini oshirish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining inklyuziv-metodik kompetentligi kontekstli ta’lim texnologiyalar asosida rivojlantirish zarurligini taqozo etadi. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyat mazmunini o‘zgartirish, inklyuziv ta’lim jarayoniga interfaol ta’lim texnologiyalarini joriy etishning pedagogik asoslari shakllantirildi. Ilmiy tadqiqot ishlarini o‘rganish va tahlil qilish natijasida hamda amaliy pedagogik tajribadan kelib chiqib, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining inklyuziv metodik kompetentligini takomillashtirish modeli ishlab chiqildi (1-rasmga qarang). Inklyuziv ta’lim muhitida pedagogik faoliyat olib borayotgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining malakasini oshirish jarayonida metod va texnologiyalarni tanlashda quyidagilarga e’tibor qaratildi: inklyuziv ta’limning maqsad, vazifalari, o‘quv modulining o‘ziga xos jihatlari va xususiyatlari, uni o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad, vazifalari, o‘quv materialining mazmuni, o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasi, tajribasi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining inklyuziv metodik kompetentligini takomillashtirish modeli uzviy bog‘langan va integrativ xususiyatga ega, maqsadi, yondashuvlari, tamoyillarini o‘z ichiga olgan maqsadli-metodologik blok; kasbiy rivojlantirish jarayonining bosqichlari, mazmuni, shakllari, metodlari va vositalaridan iborat mazmun faoliyat bloki; shaxsiy qadriyat, axborot-bilish, faoliyat, baholash tahlil mezonlari va darajalari (yuqori, o‘rta, past) belgilangan baholash tahlil blokidan tashkil topgan.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining inklyuziv-metodik kompetentligini rivojlantirish moduli asosida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o‘quvlarda ta’lim olish; masofaviy ta’lim, dual ta’lim, mustaqil ta’lim, ilmiy-nazariy anjuman (seminar, konferensiya), ustoz-shogird, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati kabi kasbiy rivojlantirish shakllaridan foydalanilgan.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining inklyuzivmetodik kompetentligini tashxis etishda inklyuziv ta’lim, metodik kompetentlk sohasidagi bilim, malaka va tajribalariga oid savollardan iborat so‘rovnoma, nazariy bilim va malakalarini aniqlash maqsadida test sinovlari o‘tkazilgan. Diagnostika natijalariga ko‘ra, 36 soat hajmidagi modul dasturi asosida, nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning metodik ishlanmalari, pedagogik vazifalar to‘plamini qollagan holda interakrv shaklidagi muntazam o‘quvlar olib borildi.

Malaka oshirishdan keyingi davrda o‘qituvchining o‘zini o‘zi rivojlantirish kasbiy faoliyatning muhim jihati hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim jarayonida o‘qituvchi turli xil ta’limiy imkoniyatiga ega ta’lim oluvchilar bilan samarali ishlash uchun o‘z mahoratini va bilimlarini doimiy rivijlantirildi



1- rasm
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv metodik kompetentligini takomillashtirish modeli

Malaka oshirishdan keyingi davrdagi kasbiy o'qituvchining faoliyatida o'zini o'zi rivojlantirish uchun uzluksiz kasbiy rivojlantirishning quyidagi shakllari qo'llanildi: sohaga oid konferentsiyalar, seminarlarda ishtiroki; maxsus psixologik-pedagogik adabiyotlar muhokamasi, samarali usullar va texnologiyalar joriy etish bo'yicha hamkasblari bilan tajriba almashish; metod birlashmalar faoliyatida ma'ruzalar bilan ishtirok etish: o'qitish va kasbiy faoliyatining individual ta'limiy

natijalarini gayd etish, to'plash va baholash uchun portfolio ustida ishlash; o'qituvchini shaxsiy qo'llab quvvatlash, metodik kompetentligini mustaqil ravishda oshirib borishga qaratilgan couching (maslshat yordami).

Shuningdek, tashkil etilgan Resurs markazi vositasida o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish, inklyuziv ta'lim sifatini oshirish, innovatsion ta'lim, shu jumladan axborot texnologiyalarning rivojlanishini ta'minlaydigan innovatsion tarmoqlararo mutaxassislar hamkorligi tashkil etildi.

Inklyuziv ta'lim muhitini yaratish, pedagoglar inklyuziv-metodik kompetentligini rivojlantirish uchun ta'lim va boshqa tashkilotlarning tarmoqlararo aloqasi ularning birgalikdagi faoliyati bo'lib, o'quvchilarga ushbu tashkilotlarning resurslaridan foydalangan holda turli darajadagi va yo'nalishdagi ta'lim dasturlarini o'zlashtirishga imkon berdi.

Ta'lim jarayonini loyihalash va qurish, ta'lim oluvchilar ehtiyojlariga mos rivojlantirish va korrektsiyalash metodlarini tanlashga yordam berishga yo'naltirilgan metodik hamrohlik ishlari amalga oshirildi. Natijada o'qituvchilarning inklyuziv metodik kompetentligini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish, inklyuziv amaliyotni amalga oshirish bo'yicha samarali pedagogik tajribalarni tahlil qilish, umumlashtirish va almashishga erishildi.

“Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish” o'quv modulining dasturida inklyuziv-metodik kompetentlikni rivojlantirish jarayonining mazmuni, o'rganiladigan mavzular, qo'llaniladigan usul va vositalar, kutilayotgan natijalar o'z ifodasini topgan. O'quv modul dasturi mazmunidagi inklyuziv ta'limning huquqiy asoslari, tashkiliy-pedagogik asoslari, soha bo'yicha milliy va xorijiy tajribalar, o'qituvchi inklyuziv metodik kompetentligining mazmun-mohiyati; inklyuziv ta'lim sharoitida korreksion-pedagogik jarayonni modellashtirishga oid materiallarni nazariy va amaliy mashg'ulotlarda o'rganish asosida inklyuziv-metodik kompetentlikning barcha komponentlari uyg'un rivojlantirishga yordam berdi.

Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan faol ma'ruzaning turli shakllari: muammoli ma'ruza, ma'ruza-vizualizatsiya, ikki kishi ishtirokidagi ma'ruza, ma'ruza-matbuot anjumani, ma'ruza-provokatsiya (yoki rejalashtirilgan xatolari bor ma'ruza), ma'ruza-dialog, an'anaviy ma'ruza bilan bir qatorda ta'lim oluvchi o'qituvchilarning kompetentligini sezilarli darajada oshirishga imkon berdi.

Amaliy mashg'ulotlarda kasbiy-pedagogik muammo yechimlarining asoslab berilishi; kognitiv, ijtimoiy. pedagogik vazifalar mazmunining nostandart tuzilishi, uni taqdim etish shakllarining (jadvallar, grafikalar, diagrammalar, chizmalar, matnlar) o'zgaruvchanligi; muqobil hal qilish usullarining qo'llanilishi; olingan natijaning kasbiy faoliyatda qo'llash ko'lamini aniq ko'rsatib berilishi; mavjud sharoitlarni va olingan natijalarning ilmiy nazariyalar, tushunchalar, qarashlar, tadqiqot va amaliy kuzatuvlar natijalari asosida talqin qilinishi. dalillar keltirilishi kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirishga qaratildi.

Kontekstli ta'lim texnologiyalarini qo'llashda kontekstli pedagogik vazifalarni va muammoli vaziyatlarni hal qilish “vaziyatga cho'mish”ga asoslangan jarayonda inklyuziv metodik kompetentligining barcha komponentlar majmuasini rivojlantirish nazarda tutildi. Mazkur moslashuvchan texnologiya o'z tarkibida turli xil

texnologiyalar, ta'lim usullarining majmuasini birlashtirishga imkon berdi. Bunda ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatining faolligi, ijodiyligini, turli xil yondashuvlarni ta'minlandi: avval o'rganilgan nazariy materialni yangilash va uni yangi yondashuvlar nuqtai nazaridan talqin qilish-asosida muammolarni hal qilindi. Shuningdek, ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarining tashkiliy shakllarining xilma-xilligi tufayli o'quv faoliyatining intensivligi, jozibadorligi ta'minlandi; intellektual izlanish, o'quv faollik, ijodkorlik va pedagogik qo'llab-quvvatlash muhiti yaratildi.

